



The role of mass media in regulating relations between the government and citizens

Numon OVLAKULOV¹

Tashkent Institute of Chemical Technology

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024
Received in revised form
15 May 2024
Accepted 25 May 2024
Available online
15 June 2024

Keywords:

mass media,
government-citizen
relations,
journalists,
citizen journalists,
pro-government journalists,
neutral journalists.

ABSTRACT

This article is devoted to a sociological analysis of the media as a main factor in the relationship between the government and citizens. The article highlights how the media shape public opinion and influence the political behavior of the population, which becomes the subject of wide discussions in the field of social, humanities, political and legal sciences. Beginning with an overview of the functions and roles of the media, the author uses real-life examples to demonstrate their impact on the dynamics of relations between government agencies and society.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5/S-pp63-66>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ommaviy axborot vositalari,
hukumat va fuqarolar
o'rtasidagi munosabatlar,
jurnalistlar,
xalqparvar jurnasitlar,
hukumatparvar jurnalistlar,
neytral jurnalistlar.

Mazkur maqola ijtimoiy-gumanitar, siyosiy-huquqiy fanlar sohasida keng muhokama, bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan ommaviy axborot vositalari hamda ularni hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning asosiy omil sifatida tahlil qilishga qaratilgan. Maqola ommaviy axborot vositalari haqidagi ma'lumotlardan boshlanib, ularning hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlardagi ta'siri hayotiy misollar yordamida yoritilgan.

¹ Assistant, Department of Social and Humanities, Tashkent Institute of Chemical Technology.
E-mail: ovlaqilovnumon@gmail.com

Роль средств массовой информации в регулировании отношений между правительством и гражданами

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

средства массовой информации, отношения между правительством и гражданами, журналисты, народные журналисты, проправительственные журналисты, нейтральные журналисты.

Данная статья посвящена социологическому анализу средств массовой информации как основного фактора в отношениях между правительством и гражданами. Статья освещает, как масс-медиа формируют публичное мнение и влияют на политическое поведение населения, что становится предметом широких дискуссий в области социальных, гуманитарных, политических и юридических наук. Начиная с обзора функций и роли средств массовой информации, автор использует жизненные примеры для демонстрации их воздействия на динамику отношений между государственными структурами и обществом.

KIRISH

Bugungi kunda, har bir davlat jahon hamjamiyatida munosib o'ringa ega bo'lishi va o'z xalqiga munosib turmush darajasini ta'minlashi uchun eng avvalo demokratik boshqaruv tizimi, iqtisodiy barqarorlik, mamlakatda qonun ustuvorligi va inson huquqlarining ta'minlanishi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivoji, aholining ijtimoiy-siyosiy madaniyati, fuqarolik pozitsiyasining yuqoriligi kabi ko'plab omillar asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan maqsadlarni rael hayotga tadbqiq etishda mamlakatning asosiy bo'g'ini hisoblangan fuqarolar katta ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqadiki, hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtiruvchi omillarni o'rganish, ularni tizimli tahlil qilish dolzarb muammo sifatida ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarda nazar soladigan bo'lsak, hozirgi, neogloballashuv jarayonida jahonning bir qator rivojlangan davlatlarida demokratiya batamom qaror topgan, fuqarolarning erkinligi to'la ta'minlangan yoki fuqarolarlarining xohish-istaklari to'liqligicha amalga oshgan, deb aytish qiyin va bunday bo'lishi ham mumkin emas. Chunki, axborotlashgan jamiyatda insoniyatning intellektual salohiyatining oshib borishi bilan bir vaqtda, uning, "absolyut" erkinlikka haqidagi fikr-mulohazalari ham o'zgarib borishga, "men"ligini mustahkamlashga bo'lgan intilishining kuchayishi ham sodir bo'ladi. Bunday holatlar manfaatlar zaminida tomonlarning, ya'ni inson va hukumat o'rtasida ma'lum darajadagi qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar hatto, to'qnashuvlaram davom etaveradi. Ularni "yumshatish"ning asosiy mexanizmi esa har ikkala tomonning ehtiyojini hisobga olishga xizmat qiluvchi munosabatlarni shakllantirish hisoblanadi. Bu ayniqsa, davlat bilan shaxs, fuqaro bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda alohida ahamiyatga molikdir.

Dunyoning ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida ijtimoiy madaniy texnologiyalarning davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, shaxslararo muloqotda innovatsion yondashuvni shakllantirish, madaniyatlararo dialogning yangi bosqichiga o'tishdagi ahamiyatini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunga kelib bir qator Yevropa mamlakatlari tomonidan demokratik qadriyatlarni shakllantirish orqali hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni

ta'minlashda e'tibor qaratishga arzigulik yutuqlarga erishilgan. Manbalarda ko'rishimiz mumkinki, ushbu mamlakatlar o'z hududida hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatini ta'minlashda bir qancha mezonlardan foydalanish orqali erishildi. Jumladan, mamlakatda qonun ustuvorligi, xalqning davlat va jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan qonunlarning qabul qilinishidan xabardorligi; ommaviy axborot vositalari faoliyatning qonuniy to'g'ri tashkil etilganligi va h.k.larni misol sifatida keltirish mumkin. Bu esa hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtiruvchi omillarni yangicha metodologik yondashuvlarga asoslangan qarashlarga bo'lgan zaruratni kuchaytirmoqda.

Tadqiqotlarga e'tibor beradigan bo'lsak axborotlashgan jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining faoliyati qonuniy to'g'ri tashkil etilganligi hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda ahamiyatli o'rin egallaydi. Hozirgi kunda hukumat va fuqarolar munosabatlariga ta'sir o'tkazayotgan ommaviy axborot vositalari jurnalistlarining faoliyatiga qarab ularni uch guruh bo'lish mumkin;

Birinchi guruh xalqparvarlar jurnalistlar, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lum auditoriyaga ega bo'lgan, jurnal yoki gazetada faoliyat olib borayotgan jurnalistlar. Ularning diqqati asosan hukumat kamchiliklari bilan band, qonun ustuvorligiga katta urg'u beradi, hukumat tomonidan amalga oshirilayotganga islohotlarga ahamiyat berishmaydi, ahamiyat berishsa-da kinoyali yoritishga harakat qilishadi. Ularning faoliyati natijasida fuqarolarning hukumatga bo'lgan ishonchi kundan-kunga zaiflashib boradi. Bu turdagi jurnalist yoki bloggerlarga asosan so'z erkinligi kafolatlangan, demokratik yuksalishga erishayotgan g'arb mamlakatlarida uchratish mumkin. Xususan, AQSh da faoliyat olib borayotgan Tucer Carlson Youtube ijtimoiy tarmog'ida 2 milliondan ortiq insonlar ro'yxatdan o'tgan va u asosan o'z mamlakatida hukumat a'zolarini qoralovchi fikrlari bilan xalq ichida tanilgan.

Ikkinchidan, hukumatparvar jurnalist, bloggerlar. Ularning faoliyati faqat hukumat a'zolari tomonidan amalga oshirayotgan ishlarni yoritishga qaratilgan. Ba'zi tahrirchilarning fikriga qaraganda ular mansabdor shaxslar chizib bergan chiziqdan chiqmaslikka urinishadi. Mamlakat ichidagi zaif sohalar, e'tiborsiz tashlab qo'yilgan hududlar, aholi yashash punktlaridagi kamchiliklardan qalamani uzoqroq tutishadi. Ularning faoliyati iloji boricha xalqning hukumatga bo'lgan ishonchini orttirishga qaratilgan bo'ladi. Bunday jurnalistlar hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlariga xavf ostiga qo'yadi va asosan fuqarolar tomonidan e'tiborsiz qoldiriladi.

Uchinchi guruh neytral jurnalistlar. Mamlakat so'z erkinligi ta'minlangan, demokratik davlatlarda, asosan mamlakat yoki jahonda ro'y berayotgan dolzarb muammolarni boricha taqdim etadi, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va kamchiliklarni boricha yoritib beradi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida Amerika Qo'shma Shtatlarida axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida DARPA tashkiloti xodimlari tomonidan yaratilgan va hozirgi kunga kelib ommaviy axborot vositalarining asosiy tarmog'iga aylangan internet yaratildi. Ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunga kelib internet tarmog'iga ulangan uskunalar soni 27 mlrd.dan oshgan va yaqin yillar ichida bunday uskunalar soni 40 mlrd.ga yetadi. Bundan ko'rinib turibdiki, yildan-yilga internetdan foydalanuvchi insonlar soni oshib bormoqda. Bu esa ommaviy axborot vositalarini hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirishdagi o'rnini yanada muhim vosita sifatida shakllantirmoqda.

Aytish joizki, ommaviy axborot vositalari vazifalarini huquqiy to'g'ri yo'lga qo'yish, qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, ular faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish, uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilish va shu bilan bir qatorda ular o'zi taqdim etayotgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar etib belgilash lozimdir.

XULOSA

Tadqiqotlardan xulosa ilish mumkinki, axborotlashgan jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining faoliyati qonuniy to'g'ri tashkil etilganligi hukumat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda tutgan o'rnini tahlil qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, qonun ustuvorligi ta'minlash har bir mamlakat uchun muhimdir. Yuqorida keltirilgan tavsiyalarga amal qilmaslik siyosatchilar va insonlar munosabatlarni xavf ostida qoldirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Otamuratov, C. Falsafa fanlari doktori. Milliy rivojlanish. 2005 y.
2. Л. Е. Ильичева, А. В. Лапин. Доверие к власти и социально-политическая консолидация общества DOI 10.19181/nko.2022.28.3.4 EDN UZXUSM УДК 323.21.
3. Raximov Sherzod Saidovich. Jamiyatni demokratlashtirishda fuqarolar siyosiy faolligini oshirish (O'zbekiston va Buyuk Britaniya misolida). Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. 2020 yil.
4. <https://advice.adliya.uz/uz/document/3190?keyword=>.